

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA DIZAYN ASOSLARI FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA METODIK ASOSLARI



**Hayitboev Diyorbek Janibekovich,**  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU,  
“San’at” kafedrası dotsent v.b.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Oliy talim tizimi pedagogika yo‘nalishlarida dizaynni o‘qitishning pedagogik muammolari va metodik asoslari, tasviriy san’at va chizmachilik o‘qituvchilarini tayyorlashda dizaynerlik kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy farazlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Dizayn, kreativlik, oliy ta’lim, metodika, dizayn, metodologiya, dizayner, sanoat namunasi, kreativlik, kompetentlik.

**Аннотация:** В данной статье освещаются педагогические проблемы и методические основы обучения дизайну в педагогических направлениях системы высшего образования Узбекистана, научные гипотезы, направленные на формирование дизайнерских компетенций при подготовке учителей изобразительного искусства и рисования.

**Ключевые слова:** Дизайн, креативность, высшее образование, методология, проектирование, методология, конструктор, промышленная модель, креативность, компетентность.

**Annotation:** This article highlights the pedagogical problems and methodological foundations of teaching design sciences in the pedagogical areas of the higher education system of Uzbekistan, scientific hypotheses aimed at the formation of design competencies in the training of teachers of fine arts and drawing.

**Keywords:** Design, creativity, higher education, methodology, design, methodology, constructor, industrial model, creativity, competence.

### **Kirish.**

So‘nggi yillarda, zamon talabi asosida vujudga kelgan yangi ixtisosliklar turmushimizning yanada chiroyli bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Ana shunday kasblardan biri dizayn va dizaynerlikdir.

Bu kabi noyob kasb egalarini mamlakatimizda yangi kasb egalari sifatida tayyorlashga ehtimollikda juda katta e‘tibor qaratilmoqda.

Dizayn badiiy loyihalash faoliyati sifatida XX asrda paydo bo‘lib, inson hayotida yaxlit estetik muhit yaratishda hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Jamiyatdagi progressiv o‘zgarishlar, iqtisodiy munosabatlarning yangicha shakllari, mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida o‘quv rejalariga zamonaviy fanlar kiritilishi ta’limning samarali metodlaridan foydalanish va natijada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni vazifa qilib qo‘yadi [1,67].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, fan, ta’lim, tarbiya va madaniyat sohalari bo‘yicha istiqbolli rivojlanishlarni belgilovchi

me'yoriy yo'riqnomalar, davlat ta'lim standartlari, talabalarning grafik bilim va madaniyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv manbaalari (o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar), xorij va respublikamizda dizayn fanini o'qitishni takomillashtirish yo'nalishlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar.

**Adabiyotlar tahlili:** D.Nozilov tomonidan 1998 yil nashr qilingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan "O'rta Osiyo dizayni tarixidan" o'quv qo'llanmasi tavsiya qilingan bo'lib, qo'llanmada maskan, ro'zg'or, xo'jalik, amaliy san'at buyumlarining tuzilishi, shakli, bezagi asrlar davomida shakllanib borishi haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, buyum vazifasining shakliga ta'siri, maskan, buyumlarda kompozitsiya o'rni, ulardagi naqshlar ramziy ifodasiga to'xtalib o'tiladi. Qo'llanma faqat amaliy san'at yo'nalishini qamrab olganligi, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida o'qib o'rganilishi uchun ma'lumotlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Ikkinchi adabiyot rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, bu kitobda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati haqida biron bir ma'lumot berilmagan. Universitetda badiiy va ijodiy tayyorgarlik muammolari (T.Yu. Bajenova, e.I. Vasileva, A.A. Vilkova, A.P. Ermolaev, E.N. Koveshnikova, P.A. Petryakov, A.A. Surin), M.O. Surin va boshqalar);

- mashg'ulotlarni tashkil etish va mazmunining umumiy qoidalari (B.G. Barxin, A.L. Gavrikov, I.A. Zimnyaya, V.P. Panasyuk, A.I. Subetto, V.V. Timofeev va boshqalar);

- dizaynning kasbiy mahoratini va dizayn tafakkurini shakllantirish (A.A. Vilkova, A.M. Gavrilov, A.D. Grigorev, T.M. Kauda, O.V. Kaukina, e.N. Koveshnikova, A.K. Markov, D.L. Melodinskiy, GB Minervin.

Oliy ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida va ko'p bosqichli ta'limga o'tish jarayonida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar, dizayn ta'limi nazariyasi va amaliyotida propedevtikaning dolzarbligi, maqsadga muvofiqligi va alohida ahamiyatini tasdiqlaydi [2,168].

San'at va dizayn sohasida bir qator ilmiy ishlar olib borish masalalariga bag'ishlangan (B.G. Barxin, B. Gropius, N.R. Dokuchaev, I. Itten, V.F. Krinskiy, N.A. Ladovskiy, L.V. Martz, D.L. Melodinskiy, G. B. Minervin, E.A. Rosenblum, A.V. Stepanov, S.O. Xon-Magomedov, O.V. Chernishev va boshq.) Boshlang'ich (propedevtik) bosqichda o'quv jarayonida uning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi: mavzuga oid adabiyotlar mazmunini o'rganish va tahlil qilish; suhbat; anketa so'rovlari; pedagogik kuzatuv; tajribalarni o'rganish va umumlashtirish; tajriba-sinov; matematik statistika.

Oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida dizayn darslarini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kursning metodik ta'minoti (o'quv-metodik majmuasi) hozirgacha tayyorlanmagan.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasidagi ko'pchilik Pedagogika oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida shu kungacha asosiy qo'llanma sifatida mahalliy sharoitga mos o'z milliy tilidagi darsliklar yetishmasligi hollari davom qilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning dizayn fani bo'yicha bilimlariga ham ta'sir qilishi tabiiy.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida dizayn fanini o'qitishni takomillashtirish yuzasidan hozirgacha respublikamizda keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Shularni hisobga olib Respublikaning pedagogika oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun dizayn fanining metodik ta'minoti majmuasini yaratish hozirgi davrdagi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldida Oliy o'quv yurtlari uchun zamonaviy darslik va o'quv-metodik majmuasini yaratish muammolari mavjud bo'lib, ushbu muammoni hal

qilish uchun loyiha ishlab chiqish zarur bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar ijobiy hal qilinib, loyiha amalga oshirilgandan keyin Respublikaning pedagogika oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida dizayn fanining metodik ta'minoti zamonaviy talablar darajasida to'liq ta'minlanadi.

Talabalar uchun "Dizayn" fani "tushunarsiz, qiyin fan" bo'lmasdan, qiziqarli, ijodkorlik ishlariga yaxshi imkoniyatlar yaratilgan ko'rinish kasb etadi albatta.

Belgilangan qarama-qarshiliklardan kelib chiqqan holda, oliy ta'limda dizayn bakalavrlarini kasbiy-mahorat tayyorgarligini amalga oshirish yo'llarini izlashdan iborat tadqiqot vazifasi aniqlandi.

Tadqiqot muammosi va biz aniqlagan qarama-qarshiliklar ushbu tadqiqot mavzusini aniqladi: "Oliy ta'limda bakalavrlarini professional va pedagogik dizaynerlik kompetentsiyalarini shakllantirish asosida tayyorlash".

O'qituvchi innovatsion kompetentlik faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikr ravonligi;

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial-ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi [5,27].

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potentsial kreativlik amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

Tahlil va natijalar: Talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazishdan maqsad ularning dizayni kursi va o'zlari bajargan mustaqil topshiriqlar bo'yicha fikrlarini bilish, topshiriqlarni bajarishga sarflanadigan taxminiy vaqtni aniqlash va hokozodan iborat edi. So'rovlarga tajribali sinovda qatnashgan 85 nafar talabadan 84 nafari javob qaytarishdi.

#### **O'tkazilgan so'rovning natijalari quyidagicha bo'ldi:**

So'rovlarda qatnashgan 9,2% talaba dizayni kursini o'rganish va topshiriqlarni bajarish zarur emas deb hisoblaydilar. 16,7% talaba o'z munosabatlarini aniqlashda qiynalishdi. 74,1% talaba dizayni kursini o'rganish zarurligini, topshiriqlarni bajarish ular uchun qiziqarli bo'lganini bildirishdi.

So'rovlarda qatnashgan 26,4% talaba mustaqil topshiriqlarni bajarishga doir nazariy ma'lumotlar va topshiriqlar hajmini kengaytirishni zarur deb hisoblaydilar. 21,6% talaba mustaqil topshiriqlar hajmi (soni)ni kamaytirishni taklif qildilar. 14,2% talaba dizayn kursi mashg'ulotlari sifatida talabalarning o'rganishini zarur deb hisoblaydilar. 74,1% ya'ni 84 nafar talaba dizayn kursida:

- a) o'zlarining individual qiziqishlarini hisobga olgan holda topshiriq turini tanlash;
- b) topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondoshib o'z qobiliyatlarini namoyon qilish;
- v) turmushda foydalanish imkoniyati mavjudligi o'zlariga yoqqanligini qayt qilishdi. 26,4% talabaga interber loyihalarini ishlashda loyiha eskizlarini chizish va bajarilgan eskizlar bo'yicha

dizayn topshirig'ini tugallangan loyihasini chizib yakunlash ko'proq yoqdi. 18,4% talabaga o'quv xonalarini zamonaviy jihozlar bilan jihozlash topshiriqlari qiziqarli bo'ldi. 9,3% talabaga dizayn kursini o'rganish ma'qul bo'lmadi.

Talabalar javoblaridan ko'rinib turganidek, ularning anchagina qismi, ya'ni 26,4% talaba nazariy ma'lumotlar hamda topshiriqlar namunalari sonini ko'paytirishni taklif qilishgan.

Dizayn kursi bo'yicha tadqiqot ishimizda zarur materiallarni sodda, qisqa bayon qilishga intildik. Ushbu yo'nalishda talabalarda qiyinchiliklarning paydo bo'lish sabablarini tubandagicha deb hisoblaymiz:

- Oliy ta'lim muassasalarida dizayn kursini o'rgatishga e'tibor kamligi;
- Talabalar uchun metodik qo'llanmadan boshqa adabiyotlarning deyarli yo'qligi;
- Talabalarda adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasining yo'qligi;

Tajriba natijalari bo'yicha quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

Dizayn fanidan tadqiqot ish bo'yicha tajriba-sinov o'qitishlari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini ochishga ko'maklashadi va o'zaro bog'liq boshqa fanlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Dizayn fani bo'yicha talabalarining dastlabki bilimlari sayoz bo'lganligi sababli, boshida talabalarga beriladigan topshiriqlar og'irlik qilishi mumkin.

Tadqiqot ish bo'yicha ish samaradorligi, uning vazifalari va maqsadlarini talabalarga to'g'ri tushuntirishga ko'p jihatdan bog'liq.

Tadqiqot ish talabalarining yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga mos kelishi, shu xususiyat bo'yicha bajarilgan topshiriqlar hamda so'rovnomasavollariga qaytarilgan javoblarida tasdiqlanadi.

Tadqiqot ishini ommaviy shaklda joriy qilib, ta'limning asosiy maqsadlarini aniqlash uchun o'quv materialini oldindan metodik tayorlash zarur bo'ladi. O'zining ko'p mehnat talab qilishi va murakkabligi sababli bu ish oddiy o'qituvchilarning vazifasiga kirmaydi. «Dizayn» o'quv metodik majmua bilan ta'minlash bo'yicha ma'sul tashkilotlar va shaxslar shug'ullanishi kerak.

Muhokama: Tadqiqot ishi bo'yicha tajribali o'qitishning o'ziga xos xususiyati uning talabalar o'quv va grafik faoliyatining asoslanishi, ular dizayn kursi mavzusi va ta'limning aniq maqsadlarini bayon qilinishi bilan belgilanadi. Tajribaviy o'qitish jarayonida talabalarining dizayn kursini o'rganishdan maqsad va uning turmushdagi ahamiyatini to'g'ri tushunib yetganliklari ayon bo'ldi.

**Xulosa va takliflar:** Oliy ta'lim tizimida hozirgi davrda amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiyaning ahvoli avvalgi yillardagiga nisbatan ancha yaxshilangan bo'lsada, u yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Chunki bu hozirgi zamon talabi va ehtiyoji deb hisoblayman.

Bu masalada o'qituvchi asosiy rol ni o'ynaydi. Har bir jamiyatning rivojlanishida o'qituvchi (tarbiyachi-murabbiy)lar hal qiluvchi markaziy boshqaruvchi hisoblanadi. Chunki ular ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni bevosita amalga oshiruvchi bo'lishlari bilan bir vaqtning o'zida, shogirdlari orqali ma'naviy va moddiy boyliklarni yuzaga keltiruvchi bo'lib hisoblanadi [1,65].

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri mukammal kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish va uni amalga joriy etish bilan bog'liq. Bu masala, ayniqsa Oliy ta'lim tizimi pedagogika yo'nalishlarida ta'limi tizimida muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamon talabiga javob beradigan mukammal kadrlar tayyorlashda eng avvalo oliy ta'limdagi barcha fanlardagi bilimlarini shu jumladan dizayn fanini chuqurroq egallashlari talab etiladi. Chunki Oliy ta'lim muassasasini tugatgan har bir talabalar ertaga o'z ish faoliyatlarini boshlash uchun maktablarga boradilar. Dizaynerlik, ayniqsa grafik dizayn kishilarda obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, talabalarni estetik va politexnik tarbiyalashda kuchli vosita sifatida ko'maklashadi [5,108].

Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, o‘tkazilgan tadqiqot dolzarbligi Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ularning individual qiziqishlari va qobiliyatlarini oshirishga ko‘maklashuvchi kursning yo‘qligi bilan belgilanadi. Oliy ta‘lim muassasalarida «dizayn», «interʼer dizayni» «landshaft dizayni» fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan bir qatorda ijodkorlik ko‘nikmalari shakllantirilishi zarur.

O‘tkazilgan tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan dizayn fani darsliklari batafsil tahlil qilib chiqildi. Oliy o‘quv yurtlarida dizayn fanini o‘qitish zaruriyati tadbiq qilinib, talabalarning o‘qish va mustaqil hayotda dizaynning qay darajada zarurligi aniqlandi.

Qo‘llanilgan tanlash metodikasi va mustaqil ish topshiriqlarining mazmuniy tuzilishi bo‘yicha tavsiyalar topshiriqlar na‘munalari ishlanadi. O‘tkazilgan tadqiqot oliy ta‘lim talablari bo‘yicha talabalarga to‘la va har tamonlama ta‘lim va tarbiya berishga ko‘maklashadi. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash lozimki, kelgusida tasviriy san‘at va chizmachilik o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydigan har-bir mutaxassisda dizaynerlik kompetentsiyalarini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb va muhim vazifalaridan biridir

### **Natijalar**

#### **1. Koloristik boylik:**

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moy bo‘yoq pigmentlarning zichligi va moy bilan bog‘lovchi moddaning shaffof/yarim shaffof (lessirovka) qatlamlarni yaratish imkonini beradi. Natijada, rangtasvirda boy, chuqur kolorit va tuslarning (nyuanslarning) nafis o‘tishlari hosil bo‘ladi.

#### **2. Chidamlilik va uzoq muddat saqlanish:**

Moy bo‘yoq bilan ishlangan asarlar boshqa texnikalarga nisbatan tashqi ta’sirlarga (namlik, harorat o‘zgarishi) ancha chidamli bo‘ladi. Qurigan moy qatlami himoya vazifasini bajarib, asarning yuzlab yillar davomida saqlanishini ta‘minlaydi.

#### **3. Texnik imkoniyatlar (tekstura):**

Moy bo‘yoqning qalin va plastik tuzilishi rassomga keng texnik erkinlik beradi. Cho‘tka izlari, mastixin bilan surtish orqali fakturali (relyefli) qatlamlar yaratish, yoki aksincha, silliq, nafis yuzani hosil qilish mumkin. Bu asarning ifodaliligini sezilarli oshiradi.

### **Muhokama**

1. Moy bo‘yoqning o‘rni: Olingan natijalar moy bo‘yoqning rangtasvirda asosiy vosita sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Uning koloristik sifati, tekstura yaratish imkoniyati va chidamliligi uni badiiy ifodaning eng mukammal vositalaridan biriga aylantiradi. Ayniqsa, uch o‘lchamli hajm va kenglik tasavvurini yaratishda moy bo‘yoq boshqa texnikalardan ustun turadi.

2. Qiyosiy tahlilning xulosasi: Qiyosiy tahlilga ko‘ra, tempera yoki akvarel bo‘yoqlari tez quriydi va shaffoflik xiralikda o‘z chegaralariga ega. Moy bo‘yoq esa sekin qurishi tufayli ranglarni xolst ustida bevosita aralashtirish (qo‘shish) va uzoq muddat davomida tuzatish kiritish imkonini beradi, bu esa realistlik rangtasvir uchun muhimdir.

3. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar: Moy bo‘yoqning zamonaviy, sintetik pigmentlar va yangi bog‘lovchilar bilan o‘zaro ta’siri, shuningdek, raqamli san‘atning rivojlanishi fonida uning o‘ziga xos o‘rni chuqurroq o‘rganilishi lozim.

### **Xulosa**

Moy bo‘yoq rangtasvir san‘atida o‘zining noyob xususiyatlari – ranglarning boyligi, yorqinligi, tekstura erkinligi va asarlarning uzoq muddatli saqlanishini ta‘minlashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Uning bu afzalliklari uni nafaqat an‘anaviy, balki zamonaviy san‘at uchun ham eng qimmatli materiallardan biri sifatida saqlab qoladi.

**Foydalangan adabiyot ro`yxati:**

1. Ахмадеева Ю.А., Основные направления развития художественного образования. //Художественная школа-М, 2003. -266 с.
2. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы / С. И. Архангельский. М.: Высшая школа, 2008.-368 с.
3. Барташевич А.А., Мельников А.Г Основы художественного
4. конструирования, Минск, "Вышэйшая школа",1978. -200 с.
5. Михеенкова О. В., Матвеева В.В., Рычкова Ю.В. Современный дизайн и технологии отделки загородного дома.- М., 2005. -174с.
6. Жданова Н.С., Основы дизайна и проектно-графического моделирования: учебное пособие/. Москва ФЛИНТА, 2017. -196 с.
7. МуртазинаС.А., Формирование профессиональной компететнцию будущего Дизайнера - Казань: Изд-во КГТУ. ,2009.- С.178-181
8. С.А.Мургазина,Е.В.Кринарн// Дизайн-новые взглядын решения.-2008.-С 149-153.
9. Муртазина С.А., Значение дисциплины «История культуры и искусства»в Подготовке студентов к самостоятельной дизайнерской деятельности.-Казань: Изд-во КГТУ, 2010.-С.290-293